

MORFOLOGIK VA FONETIK SHAKLLARNING NUTQDA QO‘LLANISH DARAJASINI ANIQLASH USULLARI

1-umumta'lim maktabining ona
tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Egamova Oltinoy Ashuraliyevnaning
yozgan maqolasi

egamovaoltinoy59@gmail.com

+99893-322-55-84

Annotatsiya: Ushbu maqolada biz tilimizning morfologik va fonetik birliklari va ularning nutqda qo‘llanish darajasini aniqlash usullari ko‘rib chiqilgan. Hamda olamdagi xilma-xil mazmun va munosabatlarni turli nuqtai nazarlardan ko‘rsata oladigan. Tilimizning tamoman to‘g‘ri ifoda, tiniq tasvir va badiiy ta‘sir imkoniyatlarining chek-u chegarasi yo‘qligini ifodalashda. Tilshunoslikning bir qancha bo‘limlari mavjud. Shulardan morfologiya va fonetika bo‘limlarida biz so‘z shakllarining tarkibiy tuzilishlari haqida so‘z yuritamiz.

Kalit so‘zlar: Tilshunoslik, morfologik, fonetik, tamoyil,, kelishik qo‘shimcha, imlo qoidasi, birlik, fe‘l, so‘z shakllari, til, yozuv,

So‘zlarni adabiy til me‘yorlari asosida to‘g‘ri yozish – savodxonlik madaniylikning muhim belgilaridandir. Savodxon bo‘lmoq uchun imlo qoidalarini bilish shartdir. Binobarin, imlo qoidalari – savodxonligimiz asosidir. Imlo adabiy tilning yozma shakli bilan aloqador bo‘lib, u to‘g‘ri yozish qoidalarini o‘rgatuvchi hamda ular haqida batafsil ma‘lumot beruvchi tilshunoslikning alohida bir bo‘limidir. Imlo yozuv vositalari orqali so‘z va so‘z shakllarining bir xilda yozilishini tartibga soladi. Imlo tufayli so‘zlar yagona yozuv shakliga ega bo‘ladi.

Tilimizning grammatikasi shunchalik mantiqiy teran, tarang va takomil-u sayqal topganki, ayrim g‘arb olimlari masalan, Maks Myullerkabi aytganda, —xuddi bir guruh mutaxassislar birgalashib ishlab chiqqanday. Undagi morfologik va sintaktik birliklar real olamdagi xilma-xil mazmun va munosabatlarni turli nuqtai

nazarlardan ko'rsata oladi. Tilimizda tamoman to'g'ri ifoda, tiniq tasvir va badiiy ta'sir imkoniyatlarining chek-u chegarasi yo'q. Tilshunoslikning bir qancha bo'limlari mavjud. Shulardan morfologiya bo'limida biz so'z shakllarining tarkibiy tuzilishlarini o'rganamiz. Morfologik vositalarni nutqiy usulda qo'llash vositalari: Grammatik qoidalar to'g'ri nutq tuzilishining asosidir. Ammo aniq va ta'sirli nutq tuzish uchun Grammatik vositalarning uslublarga xoslashish, ma'no nozikliklari va ulardagi uslubiy o'ziga xoslik, uslubiy bo'yoqni ham hisobga olish zarur. Morfologik shakllarning barchasi hamma uslublarda aynan bir xil qo'llanmaydi, ularning qo'llanishida uslubiy o'ziga xosliklar mavjud. Ularda emotsional-ekspressiv bo'yoq nisbatan kam, funksional bo'yoq –uslubga xoslashish esa anchayin sezilarli bo'ladi. Ko'plik qo'shimchasi uslubiyati. Ko'plik qo'shimchasi odatdagi miqdoriy ortiqlik ma'nosidan tashqari turli qo'shimcha ma'no nozikliklari, ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi:–lar hurmat, kinoya-piching, kuchaytirish-ta'kidlash, taxminlash umumlashtirish kabi turli uslubiy ma'nolarni ifodalash uchun ham qo'llaniladi. Kelishik qo'shimchalari uslubiyati. Kelishik qo'shimchalari belgili-belgisiz qo'llanishi, bir-biri bilan almashinish imkoniyati, ayrim ko'makchilar bilan ma'nodoshligi, ayrimlarining qisqargan shaklda qo'llanilishi kabi bir qator xususiyatlarga ko'ra turli uslubiy ma'no nozikliklarning yuzaga chiqishiga imkoniyat beradi. Tushum kelishigi belgili (-ni) qo'llanilganda, obyektiv ta'kidlash ma'nosini ifodalaydi, belgisiz bo'lganda esa bu ta'kid yo'qoladi. Kitobni o'qidi-kitob o'qidi. Chiqish kelishigi (-dan) qo'llanilganda obyektning bir qismiga e'tibor qaratilganligi anglashiladi. Kitobni o'qidi –Kitobdan o'qidi.

Imlo muayyan qonun-qoidalarga asoslanadi. Bu qoidalarga unli va undoshlarning yozilishi, asos va qo'shimchalarning yozilishi, qo'shma so'zlarning yozilishi, bosh harflarning qo'llanishi, ko'chirish qoidalari kabilar kiradi.

Imlo qoidalari til taraqqiyotining ma'lum bir bosqichini nazarda tutgan holda tuziladi. Tilning rivojlanishi hamda ba'zi hollarda yozuvning o'zgarishi bilan imlo qoidalari ham shunga mos ravishda takomillashtirilib boriladi.

Imlo orfoepiya hamda alfavit bilan uzviy ravishda bog'liqdir. Adabiy talaffuz me'yorlarining aniq ishlab chiqilishi o'z navbatida imlo qoidalarining puxta va pishiq bo'lishida yordam beradi. Alifbo adabiy tildagi fonemalarni to'la va to'g'ri ifodalash uchun yetarli harfiy belgilarga ega bo'lsa, imlo ham shunga muvofiq ravishda davr talablariga javob bera oladigan mukammal va qulay qoidalarni o'zida tarkib toptiradi.

Har qanday yozuv tizimi ma'lum qonun-qoidalariga, ularning asosida yotuvchi imloviy tamoyillarga asoslanib ish ko'radi. Imloviy tamoyillar yozuv me'yorlariga oid qoidalarni bir xilda, turg'un shakllarda muayyan tartibda ushlab turuvchi asosiy omil sanaladi.

Fonetik tamoyil. Fonetik tamoyilga ko'ra, so'z va qo'shimchalar jonli nutqda qanday aytilsa, yozuvda ham shunday ifoda qilinadi. Masalan, son so'ziga -a, ong so'ziga -la, ishla so'ziga -v+chi qo'shimchasi qo'shilganda, bu so'zlar sana, angla, ishlovchi deb aytiladi va shunday yoziladi.

Fonetik tamoyil imloni jonli nutqqa yaqinlashtiradi, yozuv bilan talaffuz orasida yaqin aloqa va munosabat borligini ko'rsatadi.

Fonetik tamoyil so'zlarning talaffuz shaklini asos qilib oladi. Lekin bu tamoyil milliy til doirasidagi har qanday talaffuzga emas, balki adabiy talaffuz me'yorlari doirasidagi holatlarga tayanadi. Masalan, ketyapti so'zi o'zbek milliy tili doirasida ketvotti, ketopti, ketutti, ketyapti shakllarida turlicha talaffuz qilinadi. Fonetik tamoyil keltirilgan talaffuz shakllaridan adabiy me'yor sifatida tan olingan ketyapti shakliga tayanadi.

Morfologik tamoyil. Bu tamoyilga ko'ra, so'zlar va ularning tarkibiy qismlari jonli so'zlashuvdagi talaffuziga qarab emas, balki asl shakllariga muvofiq yoziladi. Masalan, uchta, kelib turibdi, shanba, go'sht so'zlari og'zaki nutqda ushta, kep turipti, shamba, go'sh shaklida aytiladi. Lekin morfologik tamoyilga asosan uchta, kelib turibdi, shanba, go'sht tarzida yoziladi.

Morfologik tamoyil o'zbek imlosining etakchi tamoyillaridan hisoblanadi. Imlo qoidalarining ko'pchiligi morfologik tamoyilga asoslangan holda tuziladi. Bu tamoyil so'z va morfemalarni yozishda bir xillikni ta'minlaydi.

Morfologik vositalarni nutqiy uslublarda qo'llash yo'llari. Til —inson tafakkuri va jamiyat taraqqiyotining asosi hisoblanadi. Uning tuzilishi va ifoda imkoniyatlari turli darajadagi vositalar orqali namoyon bo'ladi. Shunday vositalardan biri bu — morfologik vositalardir. Ular so'z yasash, so'z turkumlari, shakl yasovchi qo'shimchalar orqali tilning ifodaviy imkoniyatlarini kengaytiradi. Har bir nutqiy uslubda morfologik vositalar maqsadga muvofiq tarzda qo'llanadi va bu holat uslubning xarakterini belgilaydi. Ilmiy uslubda morfologik vositalar aniqlik va mantiqiylikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Masalan, sifat-dosh va fe'lning zamon shakllari ilmiy bayonning aniq vaqt oralig'ida ifodalanishiga xizmat qiladi:—Ushbu hodisa kuzatilgan holatlar asosida o'rganildi. Bu uslubda shuningdek, ko'plik qo'shimchalari, passiv va zamonli fe'llar keng qo'llanadi. Publitsistik uslubda morfologik vositalar ko'proq emotsional ta'sir kuchini oshirish, o'quvchiga murojaat qilish, undash maqsadida ishlatiladi. Masalan, buyruq mayli, orttirma daraja, mustahkamlovchi yuklamalar keng qo'llaniladi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, Morfologik vositalar va fonetik tamoyillarning nutqda qo'llanishi tilning ichki tizimini tashkil qiluvchi muhim birliklar bo'lib, ularning nutqiy uslublarda to'g'ri va maqsadga muvofiq qo'llanilishi har bir matnning uslubiy aniqligi, mazmuniy yuksakligi hamda ta'sirchanligini ta'minlaydi.

Demak, morfologik vositalarni turli nutqiy uslublarda mahorat bilan qo'llay bilish bu nafaqat tilni puxta egallash ko'rsatkichi, balki ifoda madaniyati, uslubiy sezgirlik va fikrni aniq yetkazish san'atidir. Bu vositalarning to'g'ri ishlatilishi orqali til imkoniyatlari to'liq ochiladi, milliy tafakkur va madaniyatning boyligi esa yanada porlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. S.Rahimov, B.Umurqulov —Hozirgi o'zbek adabiy tili—O'qiyuvchi—T.:2003y
2. R.Ishmuhammedov, M.Yuldashev —Ta'lim va tarbiyada inovatsion pedagogik texnologiyalar —Nihol —T.: 2016y
3. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi Respublika ta'lim markazi O'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturiT.: 2017y

4. Jo'raev N. (2020). Ona tili nazariy grammatikasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti.
5. Turg'unov Yo. (2018). Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
6. Jumayev A. (2019). Stilistika va nutq madaniyati. Toshkent: Yangi asr avlodi.
7. G'oziyev E., Ro'zmetov M. (2021). O'zbek tili stilistikasi. Samarqand: SamDU nashriyoti.